



O'ZBEK SHE'RIYATIDA "OY" OBRAZI

Samarqand davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

*2-bosqich talabasi **Tuliboyeva Gulsevar Zafar qizi***

Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Yusupov Sardor Shodi o'g'li

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida "oy" obrazining badiiy talqinini Usmon Nosir, Cho'lpon, Shodmonqul Salom kabi shoirlarning she'rlari asosida tahlil qilinadi. "Oy" obrazi faqatgina tabiat manzarasini yaratish uchun emas, balki ruhiy holatni ifodalash, voqealarning kechayotgan muhitini belgilash, yorni go'zallik timsoli sifatida tasvirlash vositasi sifatida ham ishlatilgan. Maqolada ushbu obrazning mazmun va vazifalari misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar. Oy, Usmon Nosir, Shodmonqul Salom, tabiat manzarasi, Cho'lpon, go'zallik, badiiy timsol.

She'riyatda obrazlar orqali fikrni ta'sirchan yetkazish, ma'noni ichki kechinmalar bilan uyg'unlashtirish muhim badiiy vositalardan biridir. Shular qatorida Oy obrazi o'zbek adabiyotida, ayniqsa, lirik she'riyatda o'zgacha o'rin tutadi. Oy – bu shunchaki osmondagi yorituvchi emas, u sokinlik, kecha, sir, ma'sumlik, poklik, go'zallik, yurakdagi iztirob va umidning ramzidir.

Oy obraziga murojaat qilish orqali shoir ichki kechinmalarni, voqealar vaqtini, muhabbatini, yolg'izlikni va ruhiy iztirobni tabiiy manzara bilan uyg'unlashtiradi. Usmon Nosirning "yurganmisiz birga oy bilan" she'ri orqali tahlil qilamiz.

"Oy" obrazining peyzaj maqsadida ishlatilishi.

Peyzaj she'riyatda atrof-muhitni ifodalash orqali holatni, kayfiyatni ifodalash sanaladi. Umon Nosir "oy" obrazidan aynan shu yo'nalishda, voqeani qaysi muhitda kechayotganini ifodalash uchun foydalaniladi.

Yurganmisiz birga oy bilan

Oqshom payti ko'm-ko'k samoda



Maysalarga shabnam qo'nganda

Shunday yaxshi, tinch va sokin. [5:57]

Bu misrada Oy – tinchlikni jimlikni ifodalab kelyapti. Shu bilan birga, oy tasviri shoirning yolg'izligi, oy bilan birga yurish tinch va yaxshi deya ta'kidlab o'tadi. Bu shunchaki manzara emas, balki ichki ruhiyatga kirish eshigi hisoblanadi.

“Oy” obrazining go'zallik va yor obraziga qiyos sifatida qo'llanishi.

Sharq adabiyotida, xususan, o'zbek mumtoz she'riyatida yor jamolini Oyga qiyoslab tasvirlash qadimdan bor. Bu an'ana XX asr she'riyatida ham davom etib kelmoqda. Oy bu yerda go'zallik, chiroy, poklik, yorug'lik, ilohiylik timsollari hisoblanadi. Buni Cho'lponning “Go'zal” she'ri orqali tahlil qilamiz.

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib

Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman,

Ul yulduz uyalib, boshini bukib,

Aytadir: men uni tushda ko'ramen.

Tushimda ko'ramen shunchalar go'zal

Bizdanda go'zaldir, oydanda go'zal. [4:34]

Bu misrada shoir yorning go'zalligini, chiroyliligini oy bilan qiyoslab beradi. Shoir yorni yulduzdan so'ragani, yulduz esa uni tushida ko'rishini va u juda go'zal hattoki oydanda go'zal deb aytadi.

“Oy” obrazining ruhiy holatini ifodalashdagi o'rni.

“Oy” obrazi orqali shoir faqat manzara yaratmaydi, balki inson ruhiyatidagi sokinlik, tinchlik, yolg'izlik, ba'zida iztirob va barqarorlikni tasvirlaydi. Buni Shodmonqul Salom she'ri orqali yoritib beramiz.

Oy suzibdi yuragimda sokin,

Kecham uzraa yog'ilmoqdan

Qalban tinchman, biroq nimadir

Yurakni zimdan siqadi bugun. [3:142]

Bu misrada Oy – sokinlik ramzi. Shoir bu sokinlik ortida qandaydir siqilish borligini bildiradi. Oy obrazi- xotirjamlik, ammo bu xotirjamlik yuzaki ekani, aslida



esa, yurakda iztirob borligi ko'rsatiladi. Oy tashqi osoyishtalik, yurak esa, ichki notinchlik markazi hisoblanadi.

Oy – ramziy ifoda vositasi sifatida

Shodmonqul Salom “oy” obrazidan nafaqat aniq tasvir emas, balki ramz sifatida ham foydalangan. Oy – yurakka tushgan og'riq, o'tgan xotira, ayriliq alomati, umid yoki quvonch ramzi bo'lishi mumkin. Masalan,

Ayriluv kechasi oy to'lin edi

Sening nigohingdan jim, shaffof, mungli...

Bu misrada oy – ayriliq kechasi ko'rgan manzara, ammo ayni paytda bu xotira ramzi. Oy – shoir xotirasida yor bilan o'tgan so'nggi tun, uning nigohi, his tuyg'ulari timsolidir. Demak, oy – shunchaki osmondagi jism emas, balki kechinmalar arxivi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi o'zbek she'riyatida “oy” obrazining bunday teran, ko'p qirrali talqini nafaqat adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, balki poetik tafakkur tomondan ham ahamiyatlidir. Bu obrazni chuqur o'rganish orqali zamonaviy o'zbek she'riyatidagi ruhiy kechinmalar, shoir qalbidagi o'zgarishlar, shuningdek, insonning ichki dunyosi haqida ham boy bilimiga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy obraz va timsollar talqini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2000.
2. Tursunov B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
3. Shodmonqul Salom. Oqshom nafasi. – Toshkent: “Yozuvchi” 2021.
4. Abdulhamid Cho'lpom. She'rlar. – Toshkent
5. Usmon Nosir. She'rlar to'plami.
6. G'ofurov E. she'riyat san'ati va obrazlilik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.